



O`zbekiston respublikasi Xalq ta`limi Vazirligi
Navoiy viloyati xalq ta`li boshqarmasi Xatirchi
tuman xalq ta`limi muassasalari faoliyatini metodik
ta`minlash va tashkil etish tuman bulimiga
qarashli 65-sonli

UMUMTA`LIM MAKTABI

INFORMATIKA FANIDAN 1-SOATLIK DARS ISHLANMA

Bajardi: Informatika fani o`qituvchisi

Baxriddinov Alisher

Фарзандларимиз биздан кўра билимли, кучли, доно ва
албатта бахтли бўлишлари шарт.

I.A. Karimov



8-sinf Informatika fani

**Mavzu: «Kompyuterlarning
dasturiy ta'minoti »»**



Dars maqsadi: *O'quvchilarga kompyuterlarning dasturiy ta'minoti haqida ma'lumot berish.*

Darsning usuli: *Noan'anaviy*

Darning tipi: *Yangi bilimlar berish*

Dars jihozi: *Kompyuter (noutbook), Video proektor,*

Axborot manbai: *Darslik, O`qituvchi qullanmasi.*



Asosiy tushunchalar:

Texnik ta'minot, dasturiy ta'minot, sistema dasturlari, uskunaviy dasturlar, amaliy dasturlar, utilitlar.



Darsni borishi:

a) Salomlashish ijodiy muxit yaratish,

b) Davomatni aniqlash, doskaga sana va mavzuni qayd qilish.

c) O`tilgan mavzuni takrolash, savol-javob orqali.



Mavzuni boshlashga hozirlik:

Informatika va hisoblash texnikasi asoslari darsligi va proektor tayyorlab qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan kompyuterlar ishga hozirlanadi. Mavjud elektron darslik va elektron qo'llanmalar kompyuterga yuklab ishchi holatga keltiriladi.







Mavzuni yoritish:



Informatikada kompyuter texnikasini quyidagi ikki qismning birligi sifatida qaraladi:

texnik vositalar




Dasturiy vositalar.



Texnik vositalar - kompyuterning qurilmalaridir. Ingliz tilida bu qism Hardware deb ataladi va “qattiq mahsulotlar” deb tarjima qilinadi. Bu qismga, masalan, protsessor, vinchester, monitor, klaviatura disk yurituvchi, printerlarni misol qilish mumkin.



Texnik vositalar





Dasturiy vositalar - kompyuter tomonidan ishlatiladigan barcha dasturlar to'plamidir. Ingliz tilida bu qism Software deb ataladi va "yumshoq mahsulotlar" deb tarjima qilinadi. Bu so'z dasturiy ta'minot bilan kompyuterlarning mutanosibligini, dasturlarning takomillashishi, rivojlanishi va moslashuvchanligini ifodalaydi.




Dasturiy vositalar





*Kompyuterlarda ishlatilayotgan
dasturlarni shartli ravishda quyidagi
uch turga ajratish mumkin:*





Bu ajratishning shartli ravishda deyilishiga sabab shuki, dasturiy ta'minotning keskin rivojlanishi va kompyuterlarni qo'llanish sohasining kengayib borishi ba'zi dasturlarning bir turdan boshqa turga o'tib qolishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, ba'zi amaliy dasturlarning qo'llanish sohasi chuqurlashib borganligidan va alohida zaruriyatga egaligidan uskunaviy dasturga aylanib bormoqda. Ikkinchi tomondan, foydalanuvchiga e'tiboriga shunday dasturlar tavsiya etilmoqdaki (masalan, "elektron suhbatdosh"), ularni yuqoridagi hususiyatlar bo'yicha ajratish mushkul.



Sizning shaxsiy kompyuteringizda manfaat ko'rish maqsadida o'g'irlashga arziydigan qimmatli axborot bo'lmasligi mumkin. Ammo bu axborotlar siz uchun zarur. Kompyuter viruslari esa ularni o'chirib yuborish yoki foydalanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirib yuborishga qodir. Kompyuter viruslari tarixi Sinsinati shahri (Ogayyo shtati) universitetining ilmiy xodimi, kompyuter havfsizligi sohasida taniqli mutaxassis, Fred Koen nomi bilan bog'liq. Koen dasturiy vositalardan noqonuniy nusxa ko'chirishga qarshi himoya muammolari ustida ish olib borib, yangi dastur yaratdi.



Bu dastur tez qayta tiklanish va takomillashish hamda kompyuter xotirasidagi muxim ma'lumotlarni o'chirish, sistema fayllarini "buzish" kabi ishlarni bajarish hususiyatiga ega bo'lib, dasturiy vositalardan noqonuniy nusxa olish vaqtida ishga tushardi. Axborotni o'g'rilardan himoya qilishga qaratilgan bu dastur keyinchalik kompyuter viruslarining yaratilishiga turtki bo'ldi. Natijada kompyuter viruslaridan himoyalalanish uchun maxsus dasturlar - antiviruslar ishlab chiqishga to'g'ri keldi.



Savol va topshiriqlar:



Dasturiy ta'minot deganda nimani tushunasiz?

Texnik ta'minot deganda nimani tushunasiz?

Kompyuterni ishga tushirishda dasturli ta'minotni zaruriyati bormi?

Sistema dasturlari deganda nimani tushuniladi?

Uskunaviy dasturlar deganda nimani tushuniladi?

Amaliy dasturlar deganda nimani tushuniladi?

Utilitlar nima?

Dasturiy ta'minotni qanday o'zaro bog'langan guruhlar bor?

Kompyuter virusi haqida so'zlab bering.



Uyga vazifa!

O`tilgan mavzuni o`ib kelish va savol va topshiriqlarni bajarish